

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHEKNT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 336(575.1)

IXTIYOROV BEKZOD ZULFIQOR O‘G‘LI

**MAVZU: DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI TASHKIL
ETISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

70410402 — “Davlat moliyasi va xalqaro moliya”

Magistr
Akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar: dotsent v.b., Saidnazarov F.A

Toshkent – 2024

Magistrlik dissertatsiya ishi “Moliya” kafedrasida dastlabki himoyadan o’tgan.

_____ - sonli bayonnoma « ____ » _____ 2024-yil.

Kafedra mudiri

Xudoyqulov.X.X.



imzo

sana

Ilmiy rahbar:

Saidnazarov F.A.




imzo

sana

Talaba:

Ixtiyorov B.Z.



imzo

sana

Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti

2024 yil

“ _____ ”

№ _____ raqami bilan ro‘yxatga olindi

Fakultet dekani _____

ANNOTATSIYA

Davlat moliyaviy nazorati-davlat boshqaruvining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, u qonuniylik, muvofiqlik va moliyaviy resurslarni hamda boshqa davlat mulkini boshqarish samaradorligining qabul qilingan qonunlar va standartlaridan chetga chiqishlarni nazoratni o'z ichiga oladi. Moliya sohasidagi huquqiy fan va amaliy faoliyat uchun "davlat moliyaviy nazorati" va "davlat auditi" tushunchalarini ajratish muhim ahamiyat kasb etadi, shu maqsadda ushbu tadqiqotda davlat moliyaviy nazoratining nazariy va huquqiy asoslarini, moliyaviy nazoratning kontseptsiyasi va mohiyatini ko'rib chiqish hamda o'rganish vazifasini oldi.

Umumiy holatda nazorat jamiyat hayotining barcha jarayonlarini boshqarish funksiyasidir. Bu ijtimoiy-iqtisodiy tizimdagi barcha fikr-mulohazalarni kuzatish va ijtimoiy rivojlanishning berilgan parametrlaridan paydo bo'ladigan og'ishlar haqida signallarni olish imkonini beradi. Agar nazorat predmeti jamiyatdagi moliyaga nisbatan munosabatlar bo'lsa, u holda biz nazariy asosga ega bo'lgan va tashkil etish va yuritishning maxsus shakllariga ega bo'lgan moliyaning nazorat funksiyasi haqida gapiramiz

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kuchli moliyaviy nazoratni shakllantirishni davr talabi hisoblanadi. Moliyaviy nazoratni takomillashtirish doimo mamlakatimiz rahbariyatining diqqat- e'tiborida bo'ldi. Bu xususda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev fikr yuritir ekan, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Albatta, Davlat byudjeti o'lchovsiz emas, mablag'larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta'minlash zarur"(O'zbekiston NMIU, 2017) deb ta'kidlab o'tkanlar.

Darhaqiqat, islohotlar izchilligini ta'minlash va davlat byudjeti xarajatlaridan oqilona foydalanish jarayonida moliyaviy nazoratning ilg'or usullarini qo'llash, mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda xarajatlarni tejashda moliyaviy nazorat organlarining profilaktik tadbirlarni o'tkazishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining xo'jalik yuritishning bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida, tovar va pul oqimlarini moliyaviy-iqtisodiy boshqarishda davlat moliyaviy nazoratining samarali tizimini yaratish o'ziga xos

o'rin egallaydi, bundan tashqari davlatning moliyaviy mablag'laridan samarali foydalanishning kafolati bo'lib, Davlatning jamiyat oldidagi asosiy vazifalarini bajarishdagi rolini oshirish bu amaldagi qonunchilikka muvofiq davlat xarajatlari va moliyaviy oqimlar yo'nalishlari ustidan samarali nazoratni ta'minlashga qodir bo'lgan zamonaviy moliya tizimini yaratishni talab qiladi.

Kalit so'zlar: Moliyaviy nazorat, davlat maqsadli jamg'armalari, davlat moliyasi, moliyaviy menejment, strategiya, moliyaviy tahlil, davlat zaxiralarifiskal siyosat, moliya siyosati, maqsadli jamg'armalar, davlat byudjeti.

ABSTRACT

Public financial control is one of the most important tasks of public administration, which includes control over legality, compliance and deviations from accepted laws and standards of efficiency of financial resources and other public property management. It is important to distinguish between the concepts of "state financial control" and "state audit" for legal science and practical activity in the field of finance. For this purpose, in this study, the theoretical and legal foundations of state financial control, the concept and nature of financial control, and the task of review and study were taken.

In general, control is a function of managing all processes of social life. It allows to monitor all feedbacks in the socio-economic system and receive signals about deviations from the given parameters of social development. If the subject of control is relations to finance in society, then we are talking about the control function of finance, which has a theoretical basis and has special forms of organization and management.

In the conditions of modernization of the economy in Uzbekistan, the formation of strong financial control is the demand of the times. Improvement of financial control has always been in the attention of the leadership of our country. In this regard, President Sh.M. Mirziyoyev, while thinking, emphasizes the following: "Of course, the State budget is not without measure, it is necessary to strictly save funds, to ensure that they are used for the specified purpose and rationally." tissues.

In fact, in the process of ensuring consistency of reforms and rational use of state budget expenditures, it is important for financial control bodies to conduct preventive measures in the process of applying advanced methods of financial control, increasing the efficiency of the use of funds, and saving costs. In the process of the transition of the economy of the Republic of Uzbekistan to the market economy, the creation of an effective system of state financial control in the financial and economic management of goods and money flows occupies a special place, in addition, it is a guarantee of the effective use of the state's financial resources. , Increasing the role of the state in fulfilling its main tasks before the society requires

the creation of a modern financial system capable of providing effective control over the directions of state expenditures and financial flows in accordance with the current legislation.

Key words: Financial control, state trust funds, state finance, financial management, strategy, financial analysis, state reserves, fiscal policy, financial policy, trust funds, state budget.

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija	7
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	8
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	9
Keltirilgan qisqartmalar.....	10
I BOB. KIRISH.....	11
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	11
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	12
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	13
1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti.....	14
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	14
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tasnifi.....	14
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	15
2.1. Kirish.....	15
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	15
2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	19
III BOB. METODOLOGIYA.....	21
3.1. Tadqiqot dizayni	21
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	21
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	21
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	22
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	22
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	22
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	24
4.1. Davlat moliyaviy nazoratining tashkiliy-uslubiy xususiyatlari	24
4.2. Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanish yo'nalishida moliyaviy nazorat amaliyoti tahlili	34
4.3. Davlat maqsadli fondlari va boshqa davlat mablag'lari bo'yicha moliyaviy nazorat natijalari tahlili	47
4.4. Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish va amalga oshirishning xalqaro tajribasi	59
4.5. O'zbekiston moliya tizimida davlat moliyaviy nazorat mexanizmlarini takomillashtirish masalalari	70
V BOB. XULOSA.....	81
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	83
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	84
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	87
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	88

I BOB. KIRISH

Jahon amaliyotida etakchi moliyaviy institutlar: Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi va boshqa shu kabi banklar tomonidan ajratilayotgan kredit va moliyaviy yordam shaklidagi mablag'lar, qolaversa, dunyo mamlakatlarining davlat byudjeti va boshqa pul fondlaridan turli maqsadlarda ajratilgan mablag'larning maqsadli va samarali yo'naltirilganligi yuzasidan moliyaviy nazoratning samarasini ta'minlashga qaratilgan moliyaviy tadbirlar kengayib bormoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilda jahon banki tomonidan kovid pandemiyasi oqibatlarini bartaraf etish maqsadida ajratilgan 157 mlrd dollar, kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan 83 mlrd dollar, iqlim o'zgarishiga qarshi chora tadbirlar uchun ajratilgan 26 mlrd dollar va sog'liq saqlash tizimini rivojlantirish uchun berilgan 8,4 mlrd dollarlik mablag'larning maqsadli va manzilligi sarflanganligi yuzasidan o'tkazilgan moliyaviy nazorat tadbirlari natijasida 946 mln dollarlik mablag'lar noto'g'ri sarflanganligi, talon-taroj qilinganligi va moliyaviy qonunbuzilishlarga yo'l qo'yilgan.

Jahonda davlat moliyaviy nazoratini samarali tashkil etish va amalga oshirish masalalariga doimiy ravishda katta e'tibor berib kelinmoqda. Bu borada ko'plab ilmiy-tadqiqotlarda tadqiqot ob'ekti sifatida moliyaviy nazorat masalalarini qamrab olmoqda, davlat moliyaviy nazoratining tamoyillarini belgilash, uning maqsadi va yo'nalishlarini to'g'ri aniqlash, uni amalga oshirish metodlarini aniqlash, moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi vakolatli organlarning faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

1.1 Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Bozor munosabatlariga o'tishning muayyan bosqichi vazifalariga mos ravishda moliyaviy nazorat siyosati instrumentlari ham o'zgarib boradi. Milliy iqtisodiyotimizni isloh qilishning bugungi kundagi eng muhim vazifalardan biri moliyaviy nazoratni muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan.